

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va huquqshunoslik fanlarining dolzarb muammolari kun tartibida

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutida "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va huquqshunoslik fanlarining dolzarb muammolari" mavzusida oflayn va onlayn shaklda ilmiy-amaliy tadbir bo'lib o'tdi.





Tadbir O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti huzuridagi O'zbekiston Respublikasida yuridik fanlarni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tashkil etildi. Ilmiy-amaliy tadbirda Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti ilmiy xodimlari, O'zbekistondagi yuridik oliy o'quv yurtlari vakillari, soha mutaxassislari, shuningdek, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Tadbir davomida, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan dolzarb mavzular – qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ulug'lash, mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qonunchilikni takomillashtirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, huquqiy sohadagi xalqaro ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish kabi mavzularga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglandi.

Tadbir yakunida yuridik fanlar sohasida 12.00.01 – 12.00.14 ixtisoslik shifrlari bo'yicha PhD va DSc namunaviy mavzulari tasdiqlandi hamda Davlat va huquq instituti tomonidan chop etilgan yuridik adabiyotlar taqdimoti o'tkazildi.



